Latipov. B. B.
FarDU boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi
pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHISINING O‘QUVCHILAR AQLIY TARBIYASINING RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY VAZIFALARI

Annotatsiya Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar aqliy tarbiyasining rivojlantirishdagi asosiy vazifalari ko’rsatib o’tilgan. Pedagogik bilim, amaliy tajriba, texnologik savodxonlik, ijodkorlik va shaxsiy fazilatlarning bu boradagi roli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi, kasbiy mahorat, pedagogik bilim, innovatsiya, aqliy tarbiya, bilish qobiliyatlari, o‘quvchilarning faolligi.

Аннотация В данной статье показаны основные задачи учителей начальных классов в развитии умственного воспитания учащихся. Проанализирована роль в этом отношении педагогических знаний, практического опыта, технологической грамотности, творчества и личностных качеств.

Ключевые слова. Начальная школа, учитель, профессиональное мастерство, педагогические знания, инновации, умственное воспитание, познавательные способности, активность учащихся.

Abstract This article shows the main tasks of primary school teachers in the development of students' mental education. The role of pedagogical knowledge, practical experience, technological literacy, creativity, and personal qualities in this regard is analyzed.

Keywords. Primary school, teacher, professional skills, pedagogical knowledge, innovation, mental education, cognitive abilities, and student activity.

O‘qituvchi zimmasiga o‘quvchini har tomonlama kamol toptirish vazifasi yuklatilgan ekan, avvalo, o‘quvchining aqliy tarbiyasi bilan ko‘proq shug‘ullanmog‘i darkor. Aqliy tarbiya o‘quvchilarni bilim bilan qurollantirishni, ularda ilmiy dunyo qarashning asosini shakllantirishni, tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishni, aqliy mehnat madaniyatini hosil etishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya bilish qobiliyatlari ustidan rahbarlik qilish, ularda aqliy mehnatga qiziqish uyg‘otishdan iboratdir.

Insonning tarbiyasi va uning aqliy qobiliyatini o‘stirish haqidagi g‘amxo‘rlik sinf rahbarining kundalik ishlarida juda katta o‘rin egallashi kerak. Birinchi navbatda, o‘quvchilarning hamma fanlardan bilim sistemasini egallashlarini ta’minlash, bu bilimlarni shaxsiy e’tiqodga, shaxsning ma’naviy boyligiga aylantirishlariga erishish zarur. Buni birdaniga amalga oshirib bo‘lmaydi, bilim bu hali e’tiqod emas. Agarda o‘quvchilarning aqliy emotsional va iroda kuchini uyg‘otish, ijodiy faolligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilsagina bilim e’tiqodga aylanadi.

Aqliy tarbiya o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati jarayonida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin ekanligini hisobga olgan holda, sinf rahbarlari o‘quvchilarning uyda va darsda mustaqil ishlarini to‘g‘ri tashkil etishlari o‘qituvchilarga yordam beradi. O‘qituvchilar yig‘ilishlarida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish masalalari muhokama qilinadi, ta’lim jarayonida ularni faollashtirish, bilim qobiliyatini o‘stirish yo‘llari belgilab olinadi. O‘quvchilarda mustaqil ravishda materiallarni o‘rganish tajribasini hosil etish orqali sinf rahbari ularni bilim olishga nazariy materiallarni va amaliy iqtidorini mustaqil o‘zlashtirishga olib keladi. Shu sababdan o‘quvchilarni fan va texnik to‘garaklarga, ilmiy jamiyatlarga jalb etish muhimdir. Bu esa, o‘z navbatida o‘quvchilarning olgan bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatadi va bilimga, fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. O‘quvchilarni maktabda va maktabdan tashqarida o‘tkaziladigan turli tadbirlarga qatnashtirish shaxs aqliy tarbiyasining ajralmas va muhim qismi hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchining aqliy kamolotiga ularning ijtimoiy foydali va madaniy ommaviy ishlarda qatnashishlari ijobiy ta’sir etadi. Agar bu ishlar o‘quvchilarning olgan bilimlariga asoslansa, bilimlarni amalda qo‘llashni taqozo etsa, aqliy tarbiya yana ham samarali o‘tadi. O‘quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, olgan bilimlarini mehnat bilan, ularni o‘rab olgan hayot bilan, ularni shaxsiy tajribalari bilan bog‘lash imkoniyatini beradi. Bunday sharoitda o‘quvchining aqliy kamoloti bir muncha tezlashadi. To‘g‘ri va mohirlik bilan tashkil etilgan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, o‘quvchilar aqliy tarbiyasiga ta’sir etishini maktab tajribasi ko‘rsatadi. Sinfdan tashqari o‘qish, kitobxonlar konferensiyasi, o‘qilgan kitob, ko‘rilgan kinofilmlar yuzasidan tashkil etiladigan disputlar, muzey, ko‘rgazmalar va tabiat qo‘yniga ekskursiyalar hamda shu kabi tadbirlarni o‘tkazish natijasida sinf rahbari o‘z sinfida o‘quvchilarning qiziqishini va ma’naviy boyliklarini oshirish uchun sharoit yaratadi. Sinf rahbari o‘quvchilarga sinfdan tashqari o‘qish uchun ularning qalbiga ta’sir etuvchi, vujudini qamrab oluvchi kitoblarni tavsiya etib juda to‘g‘ri ish qiladi. O‘quvchilarning aqliy kamolotiga ilmiy - ommabop kitoblar ta’sir etibgina qolmay, balki gazeta va jurnallar ham ta’sir etadi. Aqliy tarbiyaning forma va metodlari haqida gapirib V.A.Suxomlinskiy shunday deydi: “Biz o‘quvchilarimizning ilmiy-ommabop kitoblar, gazeta va jurnallar o‘qishlariga erishishga harakat qilamiz, kitoblarga, ilmga bo‘lgan qiziqishlari tufayli ular qancha ko‘p o‘qisa, fan asoslarini shuncha oson egallay oladilar va uy vazifalarini bajarishga shuncha oz vaqt sarf etadilar. O‘quvchilarimizning texnika va yosh tabiatshunoslar to‘garaklariga qatnashishlari va u erda ishlashlari yuqori sinf o‘quvchilaridan ma’ruzalar eshitish, tabiat hodisalarini kuzatish, tajribalar o‘tkazish va shu kabi sinfdan tashqari ishlar ularda kitob o‘qishga bo‘lgan havaslarini oshirishga yordam beradi. Bu ishlarni o‘qituvchilar o‘quvchilar jamoasining yaqindan yordamiga suyangan holda amalga oshiradilar. Sinfdan tashqari ish jarayonida o‘quvchilarning aqliy tarbiyasini amalga oshirishda sinf rahbari - o‘quvchilar tarbiyachisi ma’lum rol o‘ynaydi”.

Shaxsning har tomonlama kamolotini ta’minlash tizimida axloqiy-siyosiy tarbiya markaziy o‘rin egallaydi. U o‘quvchilarning axloqiy sifatlarini, e’tiqodini, yetukligini shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, u o‘quvchilarning to‘g‘ri siyosiy dunyoqarashlarini va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Axloqiy-siyosiy tarbiya o‘quvchilarni axloq va

siyosatga oid ma’lum miqdordagi bilimlar bilan qurollantirish bilan kifoyalanmaydi, balki jamiyatda o‘zini tuta bilish malaka va ko‘nikmasini egallashni ham nazarda tutadi. O‘quvchilarni rostgo‘ylikka, haqqoniylikka, kamtarin bo‘lishga o‘rgatish muhimdir.

“Har bir o‘quvchiga – jamoat ishi” degan talab maktablarimizda keng tarqalgan. Shundan kelib chiqib, har bir sinf rahbari bolalarni ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilishga harakat qiladi. Ma’lumki, o‘qish, undan keyin, ijtimoiy foydali mehnat, o‘yin, sinfdan tashqari to‘garak ishlari, sport bilan shug‘ullanish va boshqalar o‘quvchilarning jamoat ishlari hisoblanadi.

O‘quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish tarbiya va ta’limning muhim yo‘nalishi bo‘lib, ularda ijtimoiy ko‘nikma, mas’uliyat va fuqarolik faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchining kasbiy mahorati nafaqat dars berish sifatiga, balki yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan bu masalaga yondashuv tizimli va kompleks bo‘lishi zarur

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.ТолиповУ, РузиеваД. ”Педагогические технологии ипедагогическое мастерство"-Ташкент2019.

2.zarurhttps://uniwork.buxdu.uz/resurs/12886_1_A59A4CCACDD079EC7804CA6C82B60968676F4F62.pdf

3.file:///C:/Users/user/Downloads/YO‘PA0629.pdf

4.Б.Латыпов Факторы формирования профессионального мастерства будущих педагогов монография 2025г. Фергана

5.Б.Латыпов Общая педагогика учебник, 2025г. Фергана